

**MAKTAB O'QUVCHILARI BILAN LUG'AT USTIDA ISHLASHDA PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARING AHAMIYATI**

Azizova Dilshoda

90 203 21 52

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning turli lug'atlar bilan ishlash jarayonini yaxshilaydigan va rivojlantiradigan ayrim texnologiyalar ko'rib chiqildi. Bu o'yin texnologiyalari o'quvchilarni tezkorlikka, so'z boyligining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so'z: lug'at, texnologiya, matn, so'z boyligi, metodika, imlo savodxonligi.

Bugungi kunda zamonaviy maktab o'quvchisining ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy munosabatlarda yuqori hajmdagi yangiliklarni o'zlashtirish muammosiga duch kelinayotgani ta'limni takomillashtirishga doir yangicha yondashuvlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Bu esa o'z navbatida sinf, sinfdan tashqari ishlar fakultativ mashg'ulotlar, masalan, maxsus kurslarda lug'at(barcha lug'at turlari) ustida ishlash tehnologiyasini chuqur va mazmunli o'rganish, muammolarni chuqur o'rganishga qaratilgan mavzu yoki darslarning aniq cheklangan siklini aniqlashni va shu asosda ta'lim oluvchilarda lug'at ustida ishlash malakasini oshirish globallashuv jarayonida juda muhimdir. O'quvchilarning dunyoqarashi, so'z boyligini oshirishda lug'at bilan ishlash tehnologiyalarini ishlab chiqish hozirgi zamon metodikasining dolzarb masalalaridan. Zero har bir o'quvchi so'zning komunikativ ma'nosi bilan birga uning nommunativ, pragmmatik ma'nolarini ham anglashi, tahlil qila olishi, o'z nutqida erkin qo'llay olishi kerak. Globallashuv jarayonida bu o'quvchilarga suv va havodek zarur. Lug'at bilan ishlash tehnologiyalaridan eng samaralisi bu maqsaddan kelib chiqqan holda matn tanlash va uning vositasida o'quvchi so'z boyligini va uning ma'no qirralarini anglatishdir. Bundan tashqari hozirgi globallashuv jarayonida o'zbek tilini ikkinchi til nuqtayi nazaridan o'qitishga katta e'tibor berilmoqda. Chunki til avvalo kommunikativ vosita, uning birinchi va asosiy vazifasi bu insonlararo muloqot vositasi bo'lishidir. Yana so'z universal hodisa hisoblanib uning vositasida inson olam-u odam haqidagi barcha informatsiyalarni bilib olishi mumkin. Bu jihat bilan til (uning obyekti so'z) barcha fanlar chegarasini buzib kiradi. O'quvchilar fanlararo integratsiya jarayaonida tilning ahamiyati benihoya katta ekanligini anglashida o'qituvchining ro'li yuqori. Ona tili o'qituvchisi nafaqat til balki uning vositasida o'quvchiga o'zga fan sohalari haqida ham ma'lumotlar bera oilishi zamon talabidir. Chunki til universal bilish xodisasi sanalgani uchun ham uning qamrovi juda katta kengliklarda o'lchanadi. Shulardan kelib chiqib maktablarda lug'at ustida ishlash tehnologiyasini ishlab chiqishda matn bizga bir vosita o'laroq ko'makka keladi. Chunki matn so'zning maydoni, so'z o'zining barcha funksiyalarini matn tarkibidagina namoyon eta oladi. Aslida lug'at bilan ishlash bu o'quvchilarda so'z boyligini oshirishga qaratilgan metodlardan biri bo'lib, uni quyidagi tehnologiyalarda ko'rish mumkin. Avvalo matn tanlanadi. Matn o'qituvchining o'quvchiga berishi zarur bo'lgan bilimlari va qaysi mavzularni o'zlashtirishni maqsad qilishidan kelib chiqib tanlangani maqsadga muvofiq. Biz quyida tilning geografiya, tarix, siyosat kabi fanlar




bilan aloqasini o'quvchiga singdirish, so'zning kommunikativ va pragmmatik ma'nolarini anglashga ko'maklashish va ot so'z turkumining nazariy asoslarini o'rgatishni maqsad qilgan holda Tyanmen shahri haqidagi matnni tanladik. Quyida o'quvchilar bilan shu matn doirasida topshiriqlar bajaramiz. Avvalo, matnning to'liq holatini o'quvchilarga taqdim etamiz. O'quvchilarning bari ushbu matn bilan tanishib chiqadilar.

Xitoy davlatining Tibet avtonom tumanida joylashgan Tyanmen shahri dunyodagi eng kichik shahar hisoblanadi. Uning aholisi atiga bir oiladan iborat. Oila a`zolari ham ko'pchilikni tashkil etmaydi. Shunday bo'lishiga qaramasdan bu yerning o'z boshlig'i, o'z muhri bor. Tibet tumanining eng chetida joylashgan ushbu shaharda 1957-yilga qadar o'nga yaqin oila istiqomat qilgan. Lekin qandaydir sabablarga ko'ra ko'pi qadrdon yerlarini tark etishgan. Hozirgi kunda istiqomat qilayotgan oila a`zolari, asosan, chorva mollari parvarishi bilan shug'ullanishadi. Bundan tashqari, oilaning kattasi shahar boshlig'i vazifasini ham bajaradi. Oila boshlig'i keksayganda bu vazifa voyaga yetgan farzand zimmasiga yuklanadi.

Metodikada o'quvchilarga so'zlarni tushuntirishning bir nechta usullari bo'lib, ulardan biri so'zni kontekst doirasida tahlil qilishdir. Ushbu metodika dunyo bo'yicha tan olingan bo'lib eng samarali vositalardan biridir. Chunki so'z o'zining barcha funksiyalarini gap tarkibida namayon etadi. O'quvchining kontekst doirasida ishlashini izchil ravishda amalga oshirish uning lug'at boyligini oshirishga ko'mak beradi. Lug'at ustida ishlash metodikasining asosiy vazifasi maqsadi ham aslida o'quvchining so'z boyligini oshirishdan iboratdir. Matn ustida ishlash har bir so'zning leksik, grammatik ma'nolarini to'liq namoyon etgani uchun ham foydalidir. Avvalgi ona tili darsliklarida mashqlar tarqoq gaplardan iborat bo'lib matn ustida kam ishlangan. Ammo bu bizningcha yanglish o'qitish tehnikasi bo'lib, ayni zamonlarda olimlarimiz ushbu xatoliklarni to'g'rilashmoqda. Yangi chiqarilayotgan darsliklar ayni matn ustida ishlash tehnologiyasi bilan boyitilgani ona tilini o'qitish metodikasining yutuqlaridan biridir.

Matnning audiosini tinglang va mazmuniga mos rasmlarni toping.



Matn ustida ishlanganda uning audiosini eshitish o'quvchilarda eshitish malakasini oshirish bilan birga ularning xotirasida matnning umumiy ma'nolari saqlanish foizini ham



oshirishga yordam beradi. Mazkur topshiriqda berilgan matn mazmuniga mos rasmni topish o‘quvchiga qiyinchilik tug‘dirmaydi, uning assotsativ fiklashi va ma’lumotlarni tasniflash kabi malakalarini oshirishda ahamiyatlidir.

Mazkur matnning o‘quvchilarga notanish bo‘lgan so‘zlarining ma’nolari to‘liq holatda o‘qituvchi tomonidan aytib berilishi zarur. Ayni shu nuqtada o‘quvchining lug‘at ustida ishlashiga (motivatsiya) zamin hozirlanadi. O‘quvchilarning izohli lug‘at bilan ishslash tehnikasini yaxshilash uchun ajoyib mashq turi hisobanadi. Jumladan,

Oila – [a. – bola-chaqa, xonodon, urug‘, avlod] 1. Er-xotin, ularning bola-chaqlari va eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui; xonodon. Ahil oila. San’atkorlar oilasi. Oila boshlig‘i. [Eshvoy] Kambag‘al bo‘lishiga qaramay, Yo‘lchining oilasiga yordam ko‘rsatar edi. Oybek Tanlangan asarlar . Oilaning har bir a’zosi o‘z ishi, yumushi bilan mashg‘ul. Birovga qiziqish oila qurish...Bu gaplar Zamirani cho‘chitar , Ochil uni yomon yo‘lga boshlayotganday tuyulardi.P. Qodirov, Uch ildiz. 2. Ko‘chma Bir maqsad, maslak bilan birlashgan ko‘p kishilar xalqlar, mamlakatlar.O‘zbekistonda turli millat vakillari bir bo‘lib yashamoqda...3. O‘simliklar va hayvonlar sistematikasida tuzilish jihatidan bir-biriga o‘xshash, kelib chiqishi jihatidan ham o‘zaro yaqin bir necha urug‘ni o‘z ichiga olgan guruh. Dukkakkililar oilasi . O‘rdaktumshuqlilar oilasiⁱ.

O‘quvchiga tanlangan so‘zlar tanishdek tuyilsa-da oddiy so‘z bo‘lishiga qaramay oila so‘zining uch xil ma’nosi borligi ular uchun yangilikdir. Bunday muhim informatsiyani esa ular Izohli lug‘at bilan ishslash jarayonida anglab yetadilar.

Muhr- [a – muhr; tamg‘a; shularning izi] 1.Yuridik yoki jismoniy shaxsning nomi to‘liq yozilgan matnning (matn va rasmning) qabariq yoki botiq tasviri bo‘lgan bosma shakl(asbob) (Qog‘oz, nusxa tushurish uchun xizmat qiladi. Mana, noma tayyor. Faqat muhringizni bossangiz bas. Uyg‘un va I. Sulton...2. Tamg‘a, gerb. Bir yerda uchta pul yotipti: ikkitasi siyqa-siyqa bo‘lib ketgan , bittasining muhri yo‘q.⁵⁴

Avtonom – Avtonomiyanadan foydalanadigan, avtonomiya huquqiga ega bo‘lgan; avtonomiyalı. Avtonom viloyat. Avtonom respublika. Izohli lug‘atdan foydalanishning afzal tomonlaridan biri bu ham so‘zlarining mazmuni bilan birga imlo jihatidan to‘g‘ri yozilishini ham o‘rganishi mumkin bu esa ham izohli lug‘at, ham imlo lug‘ati ustida ishlashni takomillashtiradi.⁵⁵

Masalan, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar oila, muhr, tuman so‘zlarining birlashtirib turuvchi jihat bu ularning bir xil so‘roqqa javob bo‘lishi va bir so‘z turkumiga tegishliligidir. Mazkur ma’lumotning o‘quvchilarga aytilishi barobarida ularga ot so‘z turkumi haqida ham ma’lumot berilishi zarur. Kim? Nima? Qayer? kabi so‘roqlarga javob bo‘lib, shaxs, narsa, joy nomlarini bildiruvchi so‘zlar ot so‘z turkumiga mansubdir. Grammatik qoidalar nisbatan sodda va tushunarli bo‘lishidan maqsad o‘quvchilarga yengillik va nazriy masalalarni tushunishga ko‘mak berishdan iboratdir.

Savol va topshiriqlar o‘quvchilarni fikrlab matnning asosiy mazmunidan kelib chiqqan holda javob berilishini ko‘zlab tuzilishi maqsadga muvofiq. Matnning har bir

⁵⁴O‘zbek tilining izohli lug‘ati.1 jild. Madaliyev. A. Tahriri ostida. – T:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2006.624b

⁵⁵Yuqoridaq manbaa



bo'limida berilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan savol va topshiriqlar ko'zlagan maqsadimizga eshdir.

- Siz Vatan deganda nimalarni tushunasiz?

Vatanni qanday sevish kerak? Ushbu savol umumiyligi Vatan konsepsiyasiga aloqador bo'lib, umumiyligi savolga barcha o'quvchilarning javoblari tinglanishi maqsadga muvofiq. Keyinda beriluvchi savol matn mazmunidan ko'ra uning pragmatik jihatiga bog'liq tarzda tuzilgan. Shaxsiy fikrning shakllanishi va asosli dalillar keltirish malakasini oshirishga qaratilgan savolga o'quvchilar fikri tinglangach o'qituvchining o'zi ham savolga javob berib o'quvchilarni to'g'ri fikrlashga yo'naltirishi zarur.

- Qadrdon yerlarini tark etgan shaharcha aholisi, sizningcha, to'g'ri yo'l tutganmi?

Mazkur savol faktik savol turiga mansub bo'lib matnda berilgan faktlarni jamlash va umumiyligi tarzda javob berishga yo'naltiradi. Bundan tashqari ona tili fanining tarix va siyosat bilan bog'langan nuqtasi ham ayni shu savolga javob berish asnosida shakllantiriladi. Matnda berilgan faktlarga qarasak Tyanmen shahar deb atalishi uchun zarur bo'lgan kriteriyalar :muhr, hudud, boshqaruv tizimi, aholi va ma'lum o'rnatilgan tartib va qoidalar mavjud bo'lib ayni shu jihatlar sabab ushbu kichik hudud o'z maqomiga ega.

- Tyanmen nima uchun shahar hisoblanadi?

Keyingi savol didaktik turga mansub bo'lib. Tarbiyaviy ahamiyatga ega. Savolga javoblar tinglanib har bir xalq va millatning o'z ona vatani uning qadri kabi umumqadriyait haqida fikr bildirish maqsadga muvofiqdir.

- Dunyodagi eng kichik shahar tub aholisiga qanday ta`rif bergan bo'lar edingiz?

Ushbu savolning xarakterli jihatlaridan yana biri bu matn tarkibidagi ikki qismning o'zaro zidlanishidan hosil bo'lgan umumiyligi ma'no bilan bog'liqdir. Yani "Lekin qandaydir sabablarga ko'ra ko'pi qadrdon yerlarini tark etishgan jumlesi va Hozirgi kunda istiqomat qilayotgan oila a`zolari, asosan, chorva mollari parvarishi bilan shug'ullanishadi. Birinchi jumladagi qandaydir sabab bilan o'z yurtini tark etgan shahar aholisi bilan, hozirgi kunda istiqomat qilayotgan aholi o'zaro zidlanib ikkinchi jumlada fikr bildirilgan aholining vatanparvarligiga urg'u beriladi.

O'quvchilarning imlo savodxonligining oshirilishi ona tili adabiyoti fani taraqqiyotining mustahkam poydevorlaridandir. Shunday ekan savodxonlikni oshirishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning har bir dars jarayonida berilishi yaxshi natija beradi. Bunda beriluvchi savodxonlik mashqlari bolalarning Yoshi va bilim darajasidan kelib chiqib tanlangani ma'qul. Berilgan uch xil variantlarda so'zlarning har birining to'g'ri javob emasligi asoslanadi.

- Xitoy davlatining **tibet** avtonom tumanida joylashgan Tyanmen shahri dunyodagi eng kichik shahar xisoblanadi.

- Xitoy davlatining Tibet **aftanom** tumanida joylashgan Tyanmen shahri dunyodagi eng kichik shahar hisoblanadi

- Xitoy davlatining Tibet **avtonom** tumanida joylashgan Tyanmen shahri dunyodagi eng kichik shahar hisoblanadi.


Birinchi gapda Tibet so'zi atoqli ot bo'lgani uchun katta harfda yozilishi zarur, ammo berilgan misolda kichik harfda yozilgani bois berilgan jumla noto'g'ri javob sifatida olib



tashlanadi. Keyingi ikkita jumladaagi so'zlar to'g'ridan to'g'ri f va v harflarining qo'llanilishi bilan bog'liq. Chetdan kelgan so'zlarning o'zlashtirilishi, o'zbek tilining ichki qonuniyatlariga moslashishini nazarda tutgan holda javobni belgilashi zarur bo'ladi.

- Xitoy davlatining Tibet avtonom tumanida joylashgan Tyanmen shahri dunyodagi eng kichik shahar hisoblanadi.

Berilgan so'zlarni mazmuniga mos ravishda joylashtiring. Ushbu topshiriq o'quvchilarning Izohli lug'atdan qidirib topgan so'zlarini qanchalik eslab qolganligini tekshirishda ahamiyatli. Buning natijasida o'quvchilar matndagi so'zlarning barcha ma'nolarini yana bir bor takrorlab olishlari mumkin bo'ladi. Ayni metod ingliz tili o'r ganuvchilarga juda yaxshi tanish bo'lib, mazkur topshiriq turi dunyoda ancha ommalashgan. Matnda tanlangan so'zlar ot so'z turkumiga oid so'zlar bo'lib ularga so'roq berish maqsadga muvofiq.



Matnning mazmuniga mos ma'lutni topish matnning mazmunini tushunishning eng asosiy shartlaridan biridir. Quyidagi topshiriqda matn mazmuniga mos bo'lgan va undagi mazmunga mos bo'lмаган javoblarni belgilash zarur. Bu tehnologiya ingliz tili o'r ganuvchilariga tanish true, false, not gevenga mos keladi.


Berilgan matn mazmuniga mos bo'lмаган javobni toping.

- Oilaning kattasi shahar boshlig'i vazifasini ham bajaradi.
- Qandaydir sabab ular o'z qadrdon yerlarini tark etishgan.
- Aholisi, asosan, baliqchilik bilan shug'ullanadi
- Tyanmen shahrining o'z muhri bor.

O'yin qadim davrdan to hozirgi kungacha bolalarning rivojlanishi, ulg'ayishi va aqlan yetuk bo'lib o'sishida muhim vositadir. Shu bois dars mashg'ulotida o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning aqliy va jismoniy zo'riqish havfini kamaytirish bilan birgalikda ularning dam olishi va o'zini zo'riqtirmasdan bilim darajasini oshirishga ko'maklashadi. Ushbu



topshiriq o'yin shaklida bo'lib so'zlar bo'laklarga bo'lingan holda joylashtiriladi o'quvchining vazifasi ushbu so'z bo'laklarini yig'ishdan iborat.



Badiiy asar namunasi she'r, maqol, matal, ertak, hikmatli so'zlarning matn konteksi mazmuniga mos yoki mos emasligini aniqlash ikki matnni umumiy va xususiy jihatlarini ilg'ash va matn ustida ishlash malakasini oshirishda yordam berib assotsiativ fikrlash jarayonini shakllantiradi. Matn mazmuniga mos bo'lgan kontekstni aniqlang deb nomlangan topshiriq o'quvchilarga taqdim etilishi bilan ularning javoblari tinglanadi.

Xalqim, tarix hukmi seni agarda
Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi,
Qorliklarni makon etgan bo'lsayding
Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga

Ushbu she'riy parchaning umumiya mazmunini anglash uchun avvalo uning misralaridagi mazmunni yaxshi tushunib olish zarur. Mangu muzliklarda bo'lsa-da vatanni afzalliliklari: zamonaviyligi, qadimiyligi, boyligi, kambag'alligi, rivojlanganligi yoki qoloqligidan qat'iy nazar seviladi. Inson vatan va onani tanlamaydi deydilar. Shu bois ushbu she'rning umumiya mazmuni vatannni hech qanday g'arazlarsiz sevish desak adashmaymiz.

Joylashgansan shunchalar chuqrur
O'z tubiga yashirgan yurak,
Senga yetib bormoqlik uchun
Uzun umrim yetmasa kerak.
Ushbu she'rning

Bobo, Vatan yurakda o'sar,
Yurak o'sar unga bo'ylashib.
Meni tutib qolmadgi g'o'za,
So'z ortidan ketdim ergashib



Berilgan she'riy parchalarning biri tanlanib o'qituvchi tomonidan asoslanadi. Matnda vatan haqida so'z bormasada kontekstning umumiy mazmunidan bu matnda vatani va uning qadryatlarini asrashga intilayotgan qabila, birgina oila haqida xabar beriladi.

Lug'at turlari ichida O'zbek tilining antonimlar lug'ati va O'zbek tilining sinonimlar lug'ati sutida ishlash juda muhimdir. Zero, o'zbek tilida antonim va sinonim so'zlar faol tarzda qo'llaniladiki, bu o'quvchidan ushbu so'zlar haqida umumiy bo'lsa-da ma'lumotga ega bo'lish malakasini talab qiladi.

Antonimlar – shakli bir xil, ma'nosi har xil bo'lgan so'zlardir. Antonim so'zlarni kontekstda anglashilgan ma'nosini topish uchun u bilan bog'lanib kelgan so'zlarga va butun matndagi mazmunga qarash zarur. Quyidagi topshiriqda berilgan matn tarkibidagi "tuman" antonimining barcha ma'nolari berilgan, o'quvchilar undan to'g'ri javob, ya'ni matn tarkibidagi so'z ma'nosiga mos bo'lganini topishi zarur boladi. Bunda o'quvchilar Antonimlar lug'ati, Izohli lug'at bilan ishslash tehnikasini o'rganadilar.

Matnda "tuman" so'zining ma'nosi qanday?

a) atmosferaning quyi qatlamlarida yuzaga keladigan mayda suv yoki muz zarralari

b) o'n ming ma'nosida

c) ma'muriy-hududiy bo'linish ma'nosida

d) tuban, quyi ma'nosida

e) o'n ming dinorga teng pul birligi ma'nosida



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati". A.Hojiyev, A.Nurmonov, S.Zaynobiddinov, K.Kokren, M.Saidxonov, A.Sobirov, D.Quronov T.:2001
2. Mahmudov N. Nutq boyligi//Umumfilologik tadqiqotlar: muommolar va yechimlar:Tezis shaklidagi maqola.-Jizzax: 2011-162-bet
- 3.Safon Matchonov, Karima Qosimovalarning "Ona tili o'qitish metodikasi"